

Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi

Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li

FarDU, Sirtqi bo'lim, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola motiv va motivatsiya muammosihamda uning jahon va mahalliy psixologlar tomonidan tadqiq etilganligi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan.

KEYWORD: Motivatsiya, motiv, fenomen, ustanovkalar, shaxsiy dispozitsiyalar.

“Motiv” tushunchasi psixologiya sohasida keng qo'llanadigan tushunchalardan biridir. Adabiyotlarda bu terminning qo'llanilishini deyarli barcha hollarda psixologik jarayonlarni talqin qilishda uchratish mumkin.

Hozirga qadar psixologlarning motiv tushunchasi haqidagi qarashlari har xil bo'lishiga qaramay, ular bitta ma'no, motivni qandaydir aniq psixologik fenomen (har xil mualliflarda turlicha) tarzida qabul qilganlar. Asosan psixologlar undovchi, turtki beruvchi, talab qiluvchi, maqsad, shaxs xususiyati va holatiga bog'liq bo'lgan motivlar atrofida fikr va mulohazalar yuritganlar.

Birinchi marta “motivatsiya” atamasini A.Shopengauer “Yetarli darajadagi sababning to'rtta prinsipi” maqolasida ishlatadi. Shundan so'ng bu atama ijtimoiy hayotda inson va hayvonlar xatti-harakatining psixologik tomonlarini tushuntirishda mukammal ravishda kirib keladi. E.N.Bakanov, V.A.Ivannikov (1983); F.E.Vasilyuk (1984); S.P.Manukyan (1984); S.L.Rubinshteyn (1989); A.A.Fayzullayev (1987, 1989), Magomed-Eminov (1998), L.S.Vigotskiy (2004), A.Maclow (2008) va boshqalar turli motivlar bo'yicha izlanishlar olib borib, psixologiya sohasini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shgan.

Psixologiya fanida insonlar nima qilishigina emas, balki biror narsa nima uchun qilinishi ham o'rganiladi. Mana shu “nima uchun” savoliga javob berayotganimizda “motiv” yoki “motivatsiya” tushunchalariga marojaat qilinadi. Shaxsni aqliy, amaliy harakatlarga, muomala jarayoniga xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq sabablari ham “motiv” yoki “motivatsiya”larga misol bo'la oladi. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki motiv va motivatsiyaning asosiy vazifasi insonni faoliyatga, muomalaga, xulq-atvorni amalda qaror toptirishga undovchi sabablar, ichki turtkilar funksiyasini o'tashdan iboratdir. “Motivatsiya” tushunchasi “motiv” tushunchasidan kengroq ma'nova mazmunga ega. Motivatsiya – inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuyini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: “nega?”, “nima uchun?”, “nima maqsadda?”, “qanday manfaat yo'lida?” degan savollarga javob topish – motivatsiyani qidirishdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Olimlarning fikrlaricha xulq-atvorni ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar deb ham ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. Ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs so'zi amalga oshirganishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini tushunib yetmaydi., "nega?" degan savolga "o'zim ham bilmay qoldim, bilmayman", deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki dasturlar (ustanovkalar) deb ataladi..

Shu nuqtayi nazardan motiv aniqroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi xulqatvoriga nisbatan turgan moyillik va hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Nemis olimlari V.Sikora (1983), J.Espenbek (1984), H.Eysenk(1999) motivlar muammosi, ayniqsa shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida keng qamrovli tadqiqotlar olib boorish natijasida har bir shaxsni vaziyatidan kelib chiqqan holda uning holati va qobiliyati turlicha baholanishini ko'rsatadilar.

Buyuk allomalar asarlarida xulq, muomala, faoliyat motivlari va motivatsiyasi muammolari haqidagi qarashlar tasvirlangan.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik qarashlar bilan tabiiy-ilmiy (anomatik, fiziologik, bioximikva boshqalar) qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanish zaruriyati ortib boradi.

Motiv va motivatsiya haqida hozirgi zamon psixolog olimlarining fikrlari ham diqqatga sazovordir.

P.I.Ivanov (1984) psixologiya faniga katta hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. Uning qiziqish va layoqat, kasb tanlash motivlari, ta'limning psixologik asoslari, ta'limda individual munosabatni ro'yobga chiqarish va ta'lim jarayonini faollashtirish masalalariga bag'ishlangan asarlarida o'quv motivlari ularning darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Ayniqsa, uning qiziqish, layoqat, havas, motiv, motivatsiya talqiniga oid mulohazalari va g'oyalari o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan.

A.A.Fayzullayev (1987) o'z tadqiqotlarida motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif qildi. U motivatsion jarayonni 5 ta bosqichga bo'lib o'rganadi. Bu bosqichlar quyidagilar: 1) qo'zg'alishning anglanishi; 2) motivning qabul qilinishi; 3) motivning hayotga tatbiq qilinishi; 4) motivning mustahkamlanishi; 5) qo'zg'alishning faollashuvi.

A.A.Fayzullayevning motivatsion jarayonni bosqichlarga bo'lib o'rganishi psixologik tahlilni osonlashtirishi va ma'lum ma'noda bu jarayonni boshqarish imkoniyatini orttirishi bilan qimmatlidir.

A.A.Fayzullaevning ilmiy tadqiqotlarida shaxs motivatsion o'zini o'zi boshqarishning turli-tuman omillari ham aniqlangan va tahlil etilgan. Bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga, motivatsion boshqarish sharoitlariga, ushbu boshqarishni amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir. Bundan tashqari, motivatsion tuzilmalarni shaxs tomonidan obektivlashtirish, shaxsning o'z motivatsiyasini boshqarishdagi turli ijtimoiy-psixologik strategiya va usullari masalalari ham aniqlab berilgan. Shaxsning hayot faoliyatida motivatsion o'zini o'zi boshqarishning boshqa bir qancha sohalari ham o'rganilgan.

O'quv motivlari, motivatsiyasi va o'qitish uslublari haqidagi izlanishlar ko'pgina olimlarning ilmiy ishlarida ham o'z aksini topgan.

V.A.Tokaryevaning fikricha, o'qish motivlari o'zgarishi uchun sun'iy vaziyat va maxsus sharoitlar mavjud emas, bularning barchasi kundalik ijtimoiy hayotda va ta'lim jarayonida shakllanadi.

R.Z.Gaynuddinov (1992) tadqiqotlarida o'qituvchi shaxsini etnopsixologik xususiyatlari, kasb tanlashning ijtimoiy-psixologik asoslari, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari, kasbi yamxoratni oshirish mexanizmlari, tashxis muammolariga yondashishda motiv (motivatsiya)ning roli alohida ta'kidlab o'tiladi. Uning izlanishlarida motivatsiya ierarxiyasi, uning muvaffaqiyatini ta'minlash masalasi ustuvor ekanligi ko'zga tashlanadi.

G.B.Shoumarovning (1998) aksariyat izlanishlarida ijtimoiy hayot va faoliyatda motivatsiyaning roli beqiyos ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

B.R.Qodirovning (2001) keying yillardagi tadqiqotlari hamda doktorlik dissertatsiyasi layoqat, intilish, qobiliyat, iste'dod va ularni turli yoshdagi insonlarda tekshirishga bag'ishlangan. Uning komil ishonch bilan ta'kidlashiga qaraganda, o'quv motivi va motivatsiyasini hisobga olmasdan turib ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Shunday qilib keltirilgan ma'lumotlar mamlakatimiz allomalari va hozirgi zamon tadqiqotchilari asarlarida olib borilgan ishlar talabalarni yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishida o'quv motivatsiyasining roli muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida ijtimoiy-psixologik va pedagogik fanlarni rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lum bo'lgan adabiyotlarning tahlili yosh avlodni tarbiyalashda va o'quv jarayonida motiv va motivatsiyaning o'zni haqida har xil ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatadi. Buyuk allomalar asarlarida xulq, muomala va faoliyat motivlari va motivatsiyasi muammolari haqidagi qarashlar har tomonlama tasvirlangan. Motiv va motivatsiya haqidagi ma'lumotlar chet el va rus psixologlari hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda ham keng yoritilganligini ham guvohi bo'lamiz.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, faoliyat nazariyasining mualliflari ichki faoliyat tushunchasi orqali ong vapsixik jarayonlar tahlili muammosi bilan to'qnashdilar. Faoliyat nazariyasi mualliflarining fikriga ko'ra, psixik jarayonlar faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin, chunki istalgan psixik jarayon o'z vazifalari va muolajaviy-texnik tuzilishiga ega bo'lib, ma'lum maqsadda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" – Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti, 2022. – 416 Bet.
2. "Motivatsiya Nazariyalari Va Ularni Tashkilotlarda Qo'llash: Xatarlarni Tahlil Qilish": Tadqiqot Pog'Onasi. 2019.11.27. Researchleap.Com.
3. Asqarov, A. (2022). Maktabgacha Yosh Davrda Kreativ Tafakkurni Rivojlanishining Ijtimoiy Psixologik Aspektlari. *Eurasian Journal Of Academic Research*, 2(6), 882-883.
4. Asqarov, A. (2022). Maktabgacha Yosh Davrda Kreativ Tafakkurni Rivojlanishining Ijtimoiy Psixologik Aspektlari. *Eurasian Journal Of Academic Research*, 2(6), 882-883.
5. Asqarov Anvarjon Rahimjon O'G'Li. (2022). Maktabgacha Yoshdagi Bolalarning Aqliy Taraqqiyotining Rivojlanishida O'Yin Rivojlantiruvchi Faoliyat Sifatida. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 207–209.
6. Mamatisakov, J. J. O. G. L., Abduqaxxorov, L. S. O. G. L., Rahmatjonov, A. A. O. G. L., & Vahobjonov, A. A. O. G. L. (2021). Regional Aspects Of Development Of Tourist Routes. *Scientific Progress*, 2(8), 57-60.
7. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek O'G'Li. (2022). Sportchi Psixologik Salomatligiga Ta'sir Etuvchi Omillar. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 117–121.
8. Rakhmatdjonov Shokhjahon Dilshodbek O'g'li. (2022, January 23). The Role Of Physical Culture In Providing The Psychological Health Of The Athlete. *Innovative Developments And Research In Education*, Canada.
9. Рахимова, К. Н. К. (2022). Яшил Бизнес Аҳамиятининг Ортиб Боришининг Ижтимоий-Иқтисодий Запурати. *Scientific Progress*, 3(2), 880-885.

10. Rakhimova, K. (2022). Socio-Economic Necessity Of Increasing The Importance Of Green Business. *Web Of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4), 1034-1037.
11. Husanbek, Q., & Raximova, K. N. (2022). Oilaviy Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlikni Rivojlantirishning Ahamiyati Va Zaruriyati. *Gospodarka I Innowacje.*, 24, 1103-1108.
12. Мохигул, А., & Рахимова, К. (2022). Қурилиш Материаллари Саноати Корхоналарида Ишлаб Чиқиш Потенциалидан Самарали Фойдаланиш Стратегиясини Шакллантириш Йўналишлари. *Gospodarka I Innowacje.*, 24, 999-1002.
13. Raximova, K. N., & Abdurahmon Mominjon Og, A. (2022). Yashil Hom–Ashyolardan Qurilish Sohalarida Foydalanish Samaradorligi. *Gospodarka I Innowacje.*, 24, 957-960.
14. Qizi, R. K. N. M., & Kadirovna, A. M. (2022). Ishchi Kuchiga Talab Va Taklifni Istiqbolashtirish. *Ta'lim Fidoyilari*, 8, 149-153.
15. Рахимова, К. Н., Турсунов, О., Мирзаев, Р. Б., Ахмадалиева, М. К., & Кодиров, А. (2022). Ўзбекистонда «Яшил Молия» Тизимини Йўлга Қўйиш Ва Такмиллаштириш Йўналишлари. *Gospodarka I Innowacje.*, 28, 90-96.
16. Kizlarkhon, R. (2022). Economical Use Of Land And Water Resources With The Options. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 148-151.
17. Абдусаматов, Д. А. (2022). Классификация Приемников Оптического Излучения Для Разработки Оптоэлектронных Информационно-Измерительных Систем. *Gospodarka I Innowacje.*, 24, 986-988.
18. Абдусаматов, Д. А., & Рахимов, Н. Р. (2021). Технологические Особенности Изготовления Афн-Пленок И Приборных Структур На Их Основе.
19. Рахимов, Н. Р., & Абдусаматов, Д. А. (2021). Определение Природы Возникновения Аномального Фотонапряжения И Разработка Оптрона На Их Основе.
20. Abdulakhatovna, K. R. (2022). Language Acquisition. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 113-118.
21. Abdulakhatovna, K. R. (2022). Diplomatic Discourse. *Web Of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 18-22.
22. Abdulaxatovna, X. R. (2022). Abraham Linkoln Iboralarining Misolida Nutqning Psixolingvistik Ko 'Rinishi. *Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnal*, 2(10), 413-416.
23. Abdulakhatovna, K. R. (2022). The Notion Speech Acts And Analyses Of The Work “A Cup Of Tea” By Katherine Mansfield. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(08), 135-140.